


filologiya fanlari doktori, professor  
Hamid G'ulomovich Ne'matov  
tavalludining 80 yilligiga bag'ishlanadi



# FILOLOGIK ADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM muammosida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman MATERIALLARI



2021-yil 22-noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI  
BUXORO VILOYATI PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH  
VA QAYTA TAYYORLASH INSTITUTI**

**“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”  
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman  
materiallari**

(filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov  
tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlanadi)

**«ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И  
РЕШЕНИЕ»**

**материалы международной научной конференции**  
(доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович  
Нематов  
посвящается к 80-летию со дня рождения)

**“PHILOLOGICAL RESEARCH: PROBLEM AND SOLUTION”  
international scientific conference**

(doctor of Philology, Professor Hamid Gulomovich Nematov  
dedicated to the 80th birthday anniversary)

**Buxoro – 22-noyabr, 2021-yil**

MARGARET MITCHELLNING “SHAMOLLARDA QOLGAN HISLARIM”  
ASARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING FUNKSIONAL-DISKURSIV  
XUSUSIYATLARI

DOI: 10.53885/edinres.2021.29.16.054

*Mohinur Raxmiddinovna Sayliyeva*  
BuxDU Xorijiy tillar fakulteti  
Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** *Ingliz tili ming yillik tarixga ega bo‘lib, u davomida juda ko‘p iboralar, nutqning maxsus turg‘un birliklar to‘plangan. Iboralarning ma‘nosini tushunish, ularni nutqda to‘g‘ri ishlatish nutq ko‘nikmalarini takomillashtirish va til madaniyatining yuqori ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sohaga bo‘lgan qiziqish juda katta bo‘lgan. Frazeologik birliklarni o‘rganish doimo katta ahamiyatga ega bo‘lgan, shuning uchun ko‘plab olimlar frazeologik birlikni aniqlash orqali frazeologiyaga o‘z hissasini qo‘shishga intilganlar.*

**Kalit so‘zlar:** *frazeologik birliklarning qo‘llanilishi, Margaret Mitchellning “Gone with Wind” asari*

Frazeologiya asoschisi shvetsariyalik olim Charlz Balli. Xo‘sh, frazeologik birlik nima? Charlz Balli frazeologik birlikka umumiy ta‘rif berdi: "tilda mustahkam o‘rnashgan kombinatsiyalar frazeologik iboralar deb ataladi". Rus tilshunoslari Sergey Ivanovich Ozhegov va Natalya Yuliyevna Shvedova frazeologik birliklarni idiomatikaga yaqin mustaqil ma‘noga ega barqaror ifoda sifatida ta‘riflaydilar. Lev Lvovich Nelyubin frazeologik birlik (frazeologik birlik, frazeologik aylanma, frazeogramma) leksik jihatdan bo‘linmaydigan, tarkibi va tuzilishi bo‘yicha barqaror, ajralmas ibora, tayyor nutq birliigi shaklida ko‘paytiriladi, deb hisoblagan.

Frazeologizm, shuningdek, soʻzma-soʻz boshqa tilga tarjima qilinmagan nutqning barqaror burilishi yoki idioma sifatida ham taʼriflanadi. Ammo idioma frazeologik birlikdan farq qiladi, chunki u sintaktik va semantik tuzilishi bilan tilning oʻziga xos va noyob xususiyatlarini ochib beradi. Frazeologik birliklarning tarjimasiga har doim eng katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Tarjimonning vazifasi nafaqat maʼnoni yetkazish, balki frazeologik birlikning obrazlilikini aks ettirish, maqsadli tilda eng maqbul soʻz yoki iborani topishga harakat qilishdir. Ushbu tadqiqot taniqli amerikalik yozuvchi Margaret Mitchellning "Gone with the Wind" romanidan biz tanlagan frazeologik birliklarning tarjimasiga bagʻishlangan. Ushbu asar, bizning fikrimizcha, har xil iboralar va frazeologik birliklar bilan toʻldirilganligi uchun yaxshi misoldir.

Mazkur tadqiqotning maqsadlaridan biri frazeologik birliklarning badiiy asarlarda qay tarzda qoʻllanilishidan iboratdir. Biz olib qaraydigan asarimiz Margaret Mitchellning "**Gone with Wind**" boʻlib, ushbu asarda iboralarning oʻrni, ularning asar oʻqilishidagi taʼsiri ona tilisi boshqa til boʻlgan oʻquvchi nuqtayi nazaridan kuzatib boriladi.

Margaret Mitchellning badiiy asari Gone with the Windning oʻziga xosligi shundan iboratki, u nafaqat adabiy nuqtayi nazardan diqqatga sazovor manba sifatida qaraladi, balkim lingvistik jihatdan ham frazeologik birliklarni oʻzida qamrab oluvchi boy kitob desak, yanglishmagan boʻlamiz. Ushbu badiiy asarni misol tariqasida koʻrib chiqarkanmiz, undagi barcha iboralar kontekstual ravishda eʼtiborga olinadi.

Tadqiqot ishining maqsadiga erishish uchun quyidagi yoʻnalishlarga amal qilindi. Birinchidan, ushbu badiiy asar qayta-qayta oʻqildi va iboraga monand soʻz birikmalari alohida belgilandi. Keyin esa mana shu belgilangan soʻz birikmalari ibora tushunchasiga toʻgʻri kelish yo kelmasligi asosida oʻrganib chiqildi. Bu ishni amalga oshirishda lugʻatlardan foydalanildi. Shu asosda oldin belgilangan soʻz birikmalarning ibora yoki ibora emasligi aniqlandi.

Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, matnlarda uchraydigan iboralar turli xilliligi uchun bitta xulosaga kelish mumkin, iboralar tilda tez-tez uchraydigan leksikologiyaga kiruvchi boy turkumdir. Lekin har bir iborani tahlil qilish jarayonida ularning koʻpisi asardagi qahramonlar, ularning ichki kechinmalari holatini tasvirlashda qoʻllanilganligi maʼlum boʻldi. Asarda koʻp miqdorda odam tana aʼzolari yoki tana harakati ishtirokidagi iboralar ham uchraydi. Masalan, *to hold one's tongue*, [1, 4]. *to take one's foot on one's hand* [2, 6]. *to set foot on somewhere*, [3, 8]. *to put out someone's tongue*, [4, 9]. *to have eye for* [5, 11]. *to turn a sharp eye*, [6, 191-b]. *wipe one's eyes*, [7, 293]. *rack one's brain*, [8, 289]. *roll one's eyes*, [9, 332].

Asar qahramonlari bilan bogʻliq boʻlgan iboralar 65%ni tashkil etadi. Vaziyatni tasvirlovchi iborali birliklar ham anchagina boʻlib, ularni aniqlab olish qiyin emas. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan statistik maʼlumotlardan shuni xulosa qilsak boʻladiki, asar qahramonlariga tegishli boʻlgan iboralar miqdori muhit vaziyatni tasvirlovchi frazeologik birliklardan ancha koʻp ekanligini koʻrish qiyinchilik tugʻdirmaydi, chunki asarda sodir boʻlayotgan voqealar qahramonlarga bevosita tegishli ekanligi namoyon boʻladi. Faqat ayrim holatlarda atrof-muhit va sujetni ifodalovchi iboralarning ishlatilishini kuzatish mumkin.

Iboralarning asar qahramonlarining oʻzaro soʻzlashuvlarida, yaʼni dialoglarida va asarning aytib berilish jarayonida koʻp marotaba ishlatilganligi kuzatiladi. Miqdor jihatdan olib qaraladigan boʻlsa, iboralarning 30% qahramonlar tilidan ishlatilgan, 70% muallif tomonidan vaziyatni tasvirlashda qoʻllanilgan.

Asarda koʻp iboralarning takror qoʻllanilganligini taʼkidlab oʻtish joizdir. Quyidagi iboralarning takror qoʻllanganligiga guvoh boʻldik:

1. *impose upon*
2. *be upon one's shoulder*
3. *tide one's over*
4. *set foot on*
5. *put one's hand*
6. *to be sweet on*

7. *turn loose someone*
8. *drag someone down/ away*
9. *lay eye on someone*
10. *throw a glance*

Takror qoʻllangan iborali birikmalar asarda 80% ni tashkil qiladi. Iboralarning tildagi oʻrni ularning kerakli informatsiyani shinam va boy tarzda yetkazib berish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari iboralarning mazmunini ularga maʼno jihatidan oʻxshash soʻzlardan koʻra tezroq anglash mumkin, chunki ular xalq orasida oddiy soʻzlardek tushuniladi.

Avvalambor, iboralar vositasida koʻp soʻzli gaplar qisqa soʻz birikmalari orqali ifodalaniib matn mazmunini ham oʻzgartirmaydi. Ular suhbatga tejamkorlik alomatini qoʻshadi. Ayrim iboralar atigi ikki soʻzdangina iborat boʻlsa-da, lekin gapning mazmun mohiyatini yoʻqotmaydi. Lekin biz tahlilga tortgan asarimizda ikki soʻzdan iborat iboralar kam foizni tashkil qiladi. Uch va undan ortiq soʻzdan tashkil topgan iborali birikmalar asarimizda ancha. Ushbu ikki xil kategoriyani yanada yaxshiroq koʻz oldimizga keltirish uchun ularni misol sifatida keltirish bilan kifoyalnamiz:

- |  |                        |
|--|------------------------|
| 1. <i>lay eyes on someone</i>          | 1. <i>throw smile</i>  |
| 2. <i>to hold one's temper</i>         | 2. <i>draw courage</i> |
| 3. <i>drop someone's eyes</i>          | 3. <i>take strap</i>   |
| 4. <i>hold the rein</i>                | 4. <i>suit oneself</i> |
| 5. <i>from the cradle to the grave</i> |                        |
| 6. <i>draw a deep breathe</i>          |                        |

Iboralar tildagi oddiy fikrni ifodalashda har tomonlama tasvirlashda qoʻl keladi. Bu jihatdan iboralar soʻz va maʼnoga boy boʻlib aniq bir fikr yoki vaziyatni yetkazib berishda juda muhim rol oʻynaydi.

Asarda hayvonlar hamda insonlar bilan bogʻliq metaforik tarzda qoʻllanilgan iboralar ham bor : *rear like a horse*, [1, 191]; *come down on somebody like a swarm*, [2, 550]; *gad about like a man* [3, 542]; *swell up like a toad*, [4, 565]; *scramble into somewhere like a rabbit* [5, 541].

Asarimiz inson ichki kechinmalari hissiyotlari tasviri bilan uzviy bogʻliq boʻlganligi sababli hissiyotni ifodalovchi frazeologik birliklar hamda idiomalar asarda koʻp qismni tashkil etadi.

Masalan, asarda bir hissiy holat maʼnosini bildiruvchi bir necha xil iboralar ishlatilganini koʻrib chiqdik:

- (1) *lay on eyes on someone*
- (2) *throw a glance*
- (3) *turn a sharp eye*
- (4) *drop someone's eye*
- (5) *have an eye*

Yuqorida koʻrsatilgan, bu iboralar **qaramoq**, **nazar tashlamoq**, **razm solmoq** degan maʼnoni bildiradi. Unga mazmun jihatdan oid elementlarni ifodalagan. Ayrim paytlarda ikkita ibora bir xil guruhiga taalluqli boʻlsa-da, kontekstual jihatdan mazmun-mohiyatida ular bir-biridan biroz farq qilish mumkin boʻlgan holatlari kuzatilgan.

Iboralar mazmun mohiyati jihatidan qaysi davr yo vaqtga qarashli tasvirlovchi vosita sifatida qaralsa ham ajab emas Chunki tilimizda oldin ishlatilgan va hozirda kamdan kam uchraydigan bu kabi soʻz birikmalari matnning eski vaqtga yoki qadimgi davrlarga taalluqli ekanligini bildiradi. Shu oʻrinda zamonaviy iboralarni uchratib tursak, matnda ishlatilgan tilning zamonaviyroq ekanligini tushunishimiz mushkul emasdir.

Iboralar asarning oʻqilishiga boshqa yoʻllar orqali ham taʼsir etishi mumkin. Asarni oʻqiyotgan shaxsning xayoliga kelmaydigan tomonlar borki, ularni tasvirlashda alohida iboralar tanlangan. Margaret Mitchell asar qahramonlarining dunyoqarashi, maʼnaviyati, madaniyatiga xos ibora, maqol, idiomalarni mahorat bilan qoʻllaydi. Ular qahramonlarning xarakterini, ijobiy

va salbiy xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Bir soʻz bilan aytganda, muallif iboralardan unumli va oʻrinli foydalana olgan.

**Adabiyotlar:**

1. Gone with the Wind by Margaret Mitchell A project Gutenberg of Australia eBook <http://gutenberg.net.au>. ( 2002).
2. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English (2005).
3. Longman Dictionary of Idioms (1979).

Kumar Rauaj kizi Perdebaeva. Gazeta dizayniniń onıń mazmunına tásiiri .....	195
Алима Кудияровна Пирниязова. К вопросу национально-культурной семантики фразеологизмов каракалпакского языка .....	198
Mahmud Rajabov. Til korpusi, uning mohiyati va korpusga bo'lgan ehtiyoj .....	201
М.Раҳимова. Номема ва семеманинг ўзаро муносабати .....	204
Умида Раҳимова. Ҳамид олимжон ижодида қофия .....	206
Doniyorbek Rustamov. Jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning til borasidagi qarashlari .....	208
Nigora Oxunjonovna Safarova, Miraziz Ikromovich Ismatullayev. Latifalarning boshqa og'zaki epik hamda kulgiga asoslanuvchi janrlar bilan munosabati .....	213
Сафарова Ҳилола Охунжонова. Қуёшни – иссиқни соғиниш изтироби .....	216
Султанова Ш. Грамматик терминлар тараққиётига оид .....	218
Maftuna Zoir qizi Safarova. Alisher Navoiy ijodida etnonimlarning qo'llanilishi .....	221
Mohinur Raxmiddinova Sayliyeva. Margaret Mitchellning "Shamollarda qolgan hislarim" asaridagi frazeologizmlarning funksional-diskursiv xususiyatlari .....	224
Sobirova Dilnoza Rasulovna. Tibbiy reklamalarning struktur xususiyatlari .....	227
Mahira Rasulevna Saidova, Jasmin Ulug'bekovna Kurbanova. Rus guruhlarda sinonimlar vositasida nutq madaniyatini shakllantirish .....	229
Ш.Х.Шаҳобиддинова, Д.А.Рустамов. Шахслараро мулоқот тизими .....	230
Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna. Jon Steynbekning "Javohir" asari xususida .....	232
Aziza Raimjanovna Shaymardanova. O'zbek tilining intralingval lakunalari .....	234
Отабек Улашевич Шукуров. Термин неологизмлар хусусида .....	237
Гули Ибрагимовна Тоирова. Ўзбек тилининг миллий корпусини яратишда лингвистик моделлардан фойдаланиш .....	239
Ш.Д.Турдикулов. Сурхондарё митраумлари топонимиканинг ўрганиш объекти сифатида .....	244
Zulfiya Nozimovna To'yeva. Bayon – ona tili ta'limining pragmatik-didaktik vositasi .....	246
Қаҳрамон Раҳимбоевич Тўхсанов. Архаизм ва таржима .....	250
Tojiyeva Nargizaxon Elmurod qizi, Fattoyev Shohjahon Yorqin o'g'li. O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaninshning ahamiyati .....	254
Усмонова София Алимовна. Аpellятив ва топоним .....	256
Xamidov Mansur Abdumannobovich. O'zbek tili paremiologik birliklarida somatik so'zlar salmog'i .....	258
Nigora Xudoyorova, Xumora Ismoilova. "Devoni Foni" da shoir ijodiy uslubi .....	259
Nurislom Iskandarovich Khursanov. Semantic groups of behavioral verbs in uzbek and english .....	262
Ўғлоной Алламуродовна Худайназарова. Инглиз тилидаги мифоним компонентли фразеологизмларнинг сиёсий доирада қўлланилиши .....	264
Umida Ibrohim qizi Yahyoieva. -Ona affiksli yasama ravishlar, ularning lug'atlardagi ifodasi .....	266
Дилором Нигматовна Юлдашева. Фразема и ее синтаксический анализ .....	268
Юлдашева Нилуфар Эргашевна. Содда гапнинг структур тузилишини ўрганишга доир ёндашувлар .....	271
Dildora Yunus qizi Yusupova. Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyati tilini o'rganish zarurati .....	275